

OLMOSH VAZIFASIDAGI SO`ZLARNING XUSUSIYATLARI

Toirova Guli Ibragimovna

Buxoro davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori

O`dayeva Shahnoza Shuxratovna

Buxoro davlat universiteti 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7546707>

Annotatsiya: Ushbu maqolada olmosh vazifasida qo`llaniluvchi so`zlarning o`ziga xos xususiyatlari to`g`risida fikr yuritilgan bo`lib, ularning sof olmoshlardan o`zaro farqi ochib berishga harakat qilingan. Qayd etib o`tish lozimki, olmosh vazifasini bajaruvchi so`zlarning asl kelib chiqishi boshqa so`zlarga oid bo`lib, ularning mohiyatini ochib berish ushbu maqolamizning tadqiqot obyekti sifatida xizmat qiladi.

Kalit so`zlar: olmosh vazifasidagi so`zlar, xususiyat, ot-olmosh, obyekt, tadqiq xususiyati.

ХАРАКТЕРИСТИКА СЛОВ КАК МЕСТОИМЕНИЯ

Шахноза Одаева

Бухарский государственный университет аспирант 2 степени

Абстрактный: В данной статье рассматриваются специфические особенности слов, используемых в качестве местоимений, и делается попытка выявить их взаимное отличие от чистых местоимений. Следует отметить, что первоначальное происхождение слов, выступающих в роли местоимений, связано с другими словами, и раскрытие их сущности служит предметом исследования данной статьи.

Ключевые слова: слова в функции местоимения, признак, существительное-местоимение, объект, исследовательский признак.

CHARACTERISTICS OF WORDS AS PRONOUNS

Shahnoza Odayeva

Bukhara State University 2nd stage graduate student

Abstract: This article discusses the specific features of words used as pronouns, and tries to reveal their mutual difference from pure pronouns. It should be noted that



the original origin of words that act as pronouns is related to other words, and revealing their essence serves as the research object of this article.

Keywords: words in the function of pronouns, feature, noun-pronoun, object, research feature.

Tilshunoslikning morfologiya bo`limi so`z turkumlarining tadqiqini amalga oshiradi. Ma`lumki, so`z turkumlari besh guruhdan tashkil topgan, ya`ni:

- I. Mustaqil so`z turkumlari.
- II. Yordamchi so`z turkumlari.
- III. Undov so`zlar.
- IV. Taqlid so`zlar.
- V. Modal so`zlar[2].

Ularning har biri o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lib, biz tadqiq etmoqchi bo`lgan ushbu maqolada olmosh vazifasida qo`llaniluvchi so`zlarning lingvistik jihatlari tadqiqot obyekti sifatida qayd etiladi.

Olmosh so`z turkumi ikki xil ko`rinishga ega, ya`ni sof olmosh tabiatli so`zlar hamda olmosh vazifasida qo`llaniluvchi so`zlar. Sof olmoshlar o`zida olmoshning barcha jihatlari aks ettiradi, uning tub mohiyati ham olmosh ma`nosini ifodalaydi, ularga misol sifatida men, sen, ular, kimdir, nimadir va hokazolarni keltirish mumkin[5]. Olmosh vazifasida qo`llaniluvchi istilohlar esa tabiatan olmosh xarakteriga ega bo`lsa-da, biroq ularning kelib chiqishi aslan boshqa so`z turkumlariga, chunonchi, ot, sifat so`z turkumlari oid bo`ladi. Namlari qayd etilgan har ikki toifa bir-biridan ba`zi jihatlari ko`ra farqlanadi hamda ularning ayrim o`xshash jihatlari ham mavjud[3]. Uni quyidagi jadval asosida ko`rib chiqamiz:

№	Sof olmosh tabiatli so`zlar	Olmosh vazifasida keluvchi so`zlar
1	Olmoshning barcha xususiyatlarini o`zida aks ettiradi.	Olmoshning barcha xususiyatlarini o`zida aks ettiradi.
2	Kelib chiqishiga ko`ra ham olmosh turkumiga mansub bo`ladi.	Kelib chiqishiga ko`ra boshqa so`z turkumlariga oid bo`lishi mumkin.
3	_____	Ayrim hollarda asl so`z turkumi bajargan vazifasini bajaradi (masalan, sifat so`z turkumiga oid bo`lsa, sifat so`z turkumining xususiyatini aks ettirishi mumkin)

Olmosh vazifasida keluvchi so`zlarga faqir, kamina, kaminayi ojiz, bandai ojiz va shu kabilarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Ushbu so`zlarga e`tibor beradigan bo`lsak, ularning ayrimlari sifat so`z turkumiga(faqir), ayrimlari ot so`z



turkumiga(kamina) va ba`zilari esa izofali birikma (bandai ojiz, kaminayi ojiz) ko`rinishiga ega.

Faqir – olmosh vazifasida qo`llaniluvchi so`zlardan biri hisoblanib, uning etimologiyasiga yuzlanadigan bo`lsak, ushbu so`zning arab tilidan o`zlashganligiga guvoh bo`lamiz. Lug`aviy istilohi esa “kambag`al”, “qashshoq”, “muhtoj” kabi so`zlarda namoyon bo`ladi. Wikipedia onlayn lug`atida ushbu atamaga quyidagicha izoh beriladi[4]:

I. Moddiy jihatdan nochor, kambag`al, qashshoq; muhtoj.

II. Birinchi shaxs o`rnida yoki “men”, “biz” olmoshlari bilan birgalikda ishlatilib, so`zlovchining kamtarlik qilayotganligini ifodalaydi.

Demak, ushbu maqolamiz uchun “faqir” leksemasining ikkinchi ma`nosi ahamiyatli hisoblanib, unga misol sifatida quyidagi sintaktik butunlikni keltirishimiz mumkin: “Faqir u zotning suhbatlaridan bahramand bo`lgan paytlarimni eslasam, yuragim ezilur”. Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asarida qo`llanilgan “faqir” istilohiga e`tibor beradigan bo`lsak, ushbu leksik birlik doirasida quyidagi xususiyatlarni umumlashtirishimiz mumkin:

a) Olmosh vazifasida qo`llanilishi mumkin.

b) Ushbu so`z ishtirok etgan gaplarning kesimi gap talabiga ko`ra birinchi yoki uchinchi shaxsda bo`ladi.

c) Kamtarlik, xokisorlik ma`nosini o`zida ifoda etadi.

Bandai ojiz – so`z forsiy tildan o`zlashgan izofali birikma hisoblanib, asl ko`rinishi “ojiz banda” sintaktik butunligi tarzida namoyon bo`ladi. Olmosh vazifasida qo`llaniluvchi leksik birlik sifatida badiiy matnlarda qo`llanilishi mumkin[7]. Xuddi faqir leksemasi singari ushbu birlik ishtirok etgan gaplarning kesimi vaziyat taqozosiga ko`ra birinchi yoki uchinchi shaxs shaklida qo`llaniladi. Uning boshqa variantlari ham mavjud, ya`ni bandai g`ofil, bandai mo`min, bandai mutakabbur va hokazo. Keltirilgan variantlar bir-biridan mazmun jihatidan farq qilsada, biroq ularda umumiylik, ya`ni kamtarlik ma`nosini ifodalash ularni birlashtirib turuvchi xususiyat sifatida namoyon bo`ladi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, olmosh vazifasida qo`llaniluvchi so`zlarning o`ziga xos jihatlari mavjud bo`lib, ularning qanday xususiyatlarni o`zida namoyon qilishi ayrim hollarda gapda yuzaga keladigan vaziyat taqozosi o`laroq namoyon bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mengliyev B. Lisoniy sistema yaxlitligi va unda sathlararo munosabatlar: filol. fan. dokt. ... dis. – T., 2002.
2. Mengliyev B. Hozirgi o`zbek adabiy tili. – Qarshi: Nasaf, 2005.
3. Mirtojdiyev M. O`zbek tilida polisemiya. – T.: Fan, 1975.



4. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. – T.: O'qituvchi, 1989.
5. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari.-T.: O'qituvchi, 1995.
6. www.wikipedia.org
7. www.ziyouz.com
8. www.google.com





Jurnal haqida

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikasiyalarni
rivojlantirish agentligining
1540-sonli Guvohnoma

ISSN 2181-3035

Jurnalning yo'nalishlari

Aniq fanlar
Tabiiy fanlar
Tibbiyot fanlari
Texnika fanlari
Iqtisod fanlari
Filologiya fanlari
Pedagogika fanlari
Ijtimoiy-gumanitar fanlar
Psixologiya fanlari
San'at va madaniyat fanlari
Jismoniy tarbiya va sport

Aloqa uchun

talqin@bk.ru

@RavshanjonAbdullayev

+99891-1529314

“Talqin va tadqiqotlar” Respublika ilmiy-uslubiy
jurnalining xalqaro ilmiy bazalarda qayd
etilganligi va qabul qilingan maqolaning
indekslanganligi to'g'risida

Ma'lumotnoma

Maqola

Muallif(lar):

Toirova Guli Ibragimovna,
O`dayeva Shahnoza Shuxratovna

Maqola nomi:

Olmosh vazifasidagi so`zlarning xususiyatlari

Nashr etish sanasi: 30.01.2023

Indeks

1. **"Talqin va tadqiqotlar"** ilmiy-uslubiy jurnali rasmiy saytida maqola ko'rsatilgan sanada nashr etiladi.
www.talqinvatadqiqotlar.uz
2. **Google Scholar** Maqolalarning iqtibosini oshirish uchun asosiy platforma bo'lgan Google Scholar da maqola 10 kun ichida indekslandi.
https://scholar.google.com/scholar?start=10&q=%222181-3035%22&hl=ru&as_sdt=0,5
3. **Cyberleninka** Rossiya davlati asosiy ilmiy bazalardan biri bo'lgan Cyberleninkabazasiga maqola joylashtirildi.
<https://cyberleninka.ru/journal/n/talqin-va-tadqiqotlar-ilmiy-uslubiy-jurnali?i=1111786>
4. **Digital Object Identifier (DOI):** <https://zenodo.org/communities/talqin-2181-3035/search?page=1&size=20&q=>
5. **Jurnalning xalqaro ilmiy bazalardagi qaydnomasi**
ResearchBib: <https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/2181-3035>
DRJI: <http://olddrji.lbp.world/JournalProfile.aspx?jid=2181-3035>
ISSN: <https://portal.issn.org/resource/ISSN/2181-3035>
Advanced sciences index: <https://journal-index.org/index.php/asi/article/view/12604>

MUALLIFLIK GUVOHNOMASI

№2023-17-6

Ushbu guvohnoma “Talqin va tadqiqotlar” Respublika ilmiy-uslubiy jurnalining 17-soniga qabul qilingan quyidagi ilmiy maqola muallif(lar)iga taqdim etiladi.

OLMOSH VAZIFASIDAGI SO`ZLARNING XUSUSIYATLARI

Muallif(lar): Toirova Guli Ibragimovna, O`dayeva Shahnoza Shuxratovna

“Talqin va tadqiqotlar”
Respublika ilmiy-uslubiy jurnali

